
Uchko`prik tumanini o`rganish natijalari bo`yicha yig`ilish o`tkazildi

Bugun viloyat hokimligida **Respublika ishchi guruhi tomonidan 6-13 sentyabr kunlari Uchko`prik tumanida ijtimoiy-ma`naviy vaziyat va aholining yashash sharoitlarini o`rganish** natijalari bo`yicha yig`ilish o`tkazildi. Yig`ilishni viloyat hokimi Shuhrat G`aniev olib bordi.

Unda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, ishchi guruh rahbari Umar Ismoilovich Safayev o`rganish yakunlari bo`yicha ma`ruza qildi. Ishchi guruh rahbari o`z ma`ruzasida tumandagi aniqlangan muammolarga atroflicha to`xtalib, mutasaddi rahbarlar tomonidan yo`l qo`yilgan kamchiliklarni tanqid ostiga oldi. Xususan, tumandagi 4 ta sektor rahbarlarining qoniqarli faoliyat olib bormayotganligi sababli tumandagi **43 ming 337 ta** xonadonlarda hamda **104 ta** ijtimoiy ob`yektlar bo`yicha qariyb **6 ming 400 dan ortiq** muammolar aniqlanganligining o`zi naqadar achinarli holat ekanligi ta`kidlandi. Shuningdek, tumandagi mahalla raislari, profilaktika inspektorlari hamda jamoatchilik bilan hamkorlik faoliyati qoniqarli darajada yo`lga qo`yilmaganligi sababli hududda o`tgan yilning shu davriga nisbatan yoshlar o`rtasidagi jinoyatchilik, xotin-qizlar tomonidan amalga oshirilgan jinoyatchilik, va boshqa turdagi ayrim jinoyat turlari, oilalar buzilishi kabi salbiy holatlar bo`yicha raqamlarda o`shish kuzatilganligi tanqid ostiga olinib, muhokamadan o`tkazildi.

Yig`ilish yakunida Uchko`prik tumanining 4 ta sektor rahbarlari so`zga chiqib, ushbu o`rganishlar hamda ma`ruzadan tegishli xulosalar chiqarganliklarini, kelgusida o`zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishda yanada mas`uliyat bilan yondoshishga, aholi muammolarini o`z vaqtida hal etib, xalqimizni rozi qilishga astoydil harakat qilishga va`da berdilar.

Shuningdek, barcha mutasaddi rahbarlarga aniq ko`rsatma hamda topshiriqlar berilib, amalga oshirilishi lozim bo`lgan ishlar haqida kelishib olindi.

Eslatib o`tamiz, Respublika ishchi guruhi tomonidan joriy yil boshidan viloyatimizning Rishton, Quva, O`zbekiston, Qo`shtepa, Bag`dod, Buvayda tumanlari hamda Qo`qon shahrida o`rganishlar o`tkazildi. Ishchi guruh tomonidan shu kunlarda Toshloq tumanidagi ijtimoiy-ma`naviy vaziyat va aholining yashash sharoitlarini o`rganish ishlariga tayyorgarlik ko`rilmoqda.

2018-09-17 20:33:20